

TILSHUNOSLIKDA SIFAT SO'Z TURKUMINING DARAJALARI

Egamberdiyeva Dilnura Xurshid qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Sifat (tilshunoslikda) — predmet belgisini bildiruvchi soʻzlar turkumi. Grammatikada belgi soʻzi keng tushunchali boʻlib, u belgini rang-tus, hajm, shakl, koʻrinish, xususiyat va shu kabilarga koʻra bildiradi: qizil, keng, yoqimli, uchburchak. Sifat asosan otga bogʻlanadi va uning belgisini aniqlaydi. Masalan: *oq koʻylak, kuzgi ekin, aqlli singlim,*

Sifatlarga xos muhim xususiyatlardan biri uning daraja kategoriyasiga ega ekanligidir. Sifat darajalari belgining ortiq yoki kamligini farqlashga xizmat qiladi. Sifatlarda daraja shakllari uch turga boʻlinadi:

oddiy daraja;

ozaytirma daraja;

orttirma daraja.

Sifatning ozaytirma va orttirma daraja yasovchilarini olmagan formasi oddiy daraja deb yuritiladi. Oddiy darajada narsa belgisi ortiq-kamligi jihatidan qiyos qilinmay, balki toʻgʻridan-toʻgʻri, bevosita anglashiladi. Ozaytirma va orttirma darajalarda esa belgi maʼnosi oddiy darajada ifodalangan belgiga qiyoslash asosida ifodalanadi.

Ozaytirma daraja narsa belgisining oddiy daraja holatidan kamligini, kuchsizligini bildiradi. Ozaytirma darajaning morfologik koʻrsatkichi –roq affiksidadir:

Paxtani qalinroq joyga qoʻy, Ishim unsin, yana hamkasblar oldida qizarmay... (Oybek).

–roq baʼzan predmet belgisining nisbiy ortiqqligini koʻrsatadi. Bunda chogʻishtiriluvchi narsaning nomi chiqish yoki joʻnalish kelishigida boʻlib, koʻra, qaraganda, nisbatan soʻzlari bilan birga keladi: *Poʻlat temirdan qattiqroq. Karim kursimizda hamma studentlarga qaraganda kattaroq kabi.*

Predmet belgisining ortiqqligini koʻrsatish, kuchaytirish uchun baʼzan –roq affiksi bilan kelgan sifat oldidan yana, tagʻin soʻzlari keltiriladi: *Azamat uni*

peshinda bedana paloviga taklif etdi va "Farg'ona yallasini yana sho'xroq ohangda aytib, qushlarga berildi. (Oybek).

-roq affiksi ba'zan sifat bo'lmagan so'zlarga (ravish, sifatdosh, ravishdoshlarga) qo'shib, ular anglatgan belgini qiyoslab ko'rsatishi ham mumkin. Bu vaqtda ham belgining kuchsizligi anglashiladi:

ertaroq, kechroq, tezroq, ozroq, ko'proq, qarindoshroq, kulgiroq, qizarroq.

Bir necha vaqtdan buyon menga boshqacharoq qaraydigan bo'lib qolding. Ular bu sovg'alarni har kungi konfetlardan ham sevimliroq, shodlanibroq qarshi oldilar. (M. Ismoilov). U nimadandir quvnoqroq, hovliqinqiroq ko'rinar edi. (A. Muxtor). Qiyoslash ma'nosi ko'ra, nisbatan, qaraganda (ham) yordamchilari olgan otning oddiy darajadagi sifatga birikishi bilan ifodalanadi:

Kullar temirga qaraganda mustahkam bo'lishi kerak. Bugun kechagiga nisbatan kul va yaxshi, ertaga bugungiga qaraganda yana ham ko'proq va yaxshiroq ishlash kerak. Paxtamiz oltindan ham qimmat. (Oybek)

Rang-tus bildiruvchi sifatlarda predmetning belgisi kamligi, kuchsizligini ko'rsatuvchi shakl ham ishlatiladi. Bunday shakllar quyidagicha yasaladi:

a) oddiy darajadagi sifatga –ish affiksini qo'shish bilan: oqish, ko'kish, qizg'ish, sarg'ish.

Rais qornini silab kuldi, oqish tishlari ko'rinib ketdi. (Oybek).

b) sifat asosiga –(i)mtir affiksini qo'shish bilan: qoramtir, ko'kimitir.

Ko'kimitir qora osmondagi behisob yulduzlar chaqnab turadi. (A. Qahhor).

Orttirma daraja-bu daraja predmet belgisining oddiy daraja holatidan ortiq ekanligini, kuchliligini ko'rsatadi. Orttirma daraja quyidagicha ifodalanadi:

Leksik yo'l bilan, ya'ni sifat oldidan eng, juda, g'oyat, nihoyatda, behad kabi so'zlarni keltirish bilan hosil qilinadi: eng yaxshi, eng tirik kabi.

U qorli kun Yo'lchi uchun umrining eng mazmunli, eng rangli, eng go'zal kuni edi. (Oybek). Amakim bilan juda qadrdon bo'lib qoldim. (Oybek). Bir sifatning takroridan hosil bo'lgan analitik shakllarda ham belgining ortiqligi ifodalanadi. Bu xil analitik shakllarning birinchi komponenti chiqish kelishigi shaklida keladi: kundun-kun, uzundan-uzoq kabi. Ba'zan belgining ortiqlik darajasi sifat oldidan maxsus so'zlar keltirish bilan ham ifodalanadi: tim qora, g'irt yolg'on, jikkak ho'l, jikkak moy kabi. Ikki predmet belgisi o'zaro chog'ishtirilganda ham belgining ortiqligi ma'nosi anglashiladi. Bu vaqtda sifat oldidan hamma, bari, barcha kabi

olmoshlar chiqish kelishigi shaklida keladi: hammasidan yaxshi, barchasidan katta, baridan chiroyli kabi.

O‘zbek tilida qiyosiy daraja bir predmetdagi belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgidan kam yoki ortiqligini bildiradi. Sifatning bu darajasi quyidagi usullar bilan hosil qilinadi: -roq qo‘shimchasi orqali: Bu eng asosiy usul bo‘lib, sifat asosiga qo‘shiladi. Masalan: balandroq, shirinroq, yaqinroq.

Sifat darajalari badiiy adabiyotda, so‘zlashuv uslubida ham barakali foydalaniladi. Quyida O‘tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" asaridan parchalar berilgan. Ular orqali sifat darajalari haqidagi bilimlarni aniqlab olsak bo‘ladi.

Kuz o‘lim to‘shagida yotgan bemorga o‘xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi... Erta bahordan bo‘tana bo‘lib, shosha-pisha, qirg‘og‘iga sig‘may oqqan ariqlar tiniqlashadi. Shuncha urinishlari zoye ketganini tushunib, olamga ma‘yus boqadi... Endi suv tubida shodon chayqalgan maysalar emas, xazon ko‘milib yotadi... Yeru ko‘kni kafandek oppoq tuman chulg‘aydi. Oqzulmat orasidan qarg‘alarning xosiyatsiz fig‘oni eshitaladi. Biqini achishib uyg‘ondi. “Xudoyim, o‘zingning rahming kelsin”, – dedi pichirlab. Eski dardi yana qo‘zg‘adi shekilli. To‘rt yildirki, ahvol shu. Sal og‘irroq ish qilsa, yoqmasroq ovqat yesa, tamom: o‘ng ko‘kragining tagi simillab og‘riydi.

Oynasi singan tashqari eshikni ochishi bilan yuziga muzdek havo urildi. Qor yog‘yapti shekilli! Yo‘q, tuman tushibdi. Quyuq tuman. Yeru osmon xira pardaga o‘rab tashlangandek. Qiziq, hamma narsa telba-teskari ko‘rinadi. O‘n qadam naridagi baqaterakdan ko‘ra ikki chetidagi simyog‘ochlarda chiroqlar yonib turgan ko‘cha yaqinroq tuyuladi. Ko‘chadan o‘tayotgan siyrak mashinalar nur yelpig‘ichi bilan tumanni yorib imillaydi.

Yuqoridagi matnda og‘irroq, sal og‘irroq, yoqmasroq, oqish, yaqinroq kabi sifat darajalariga oid so‘zlar ishtirok etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ra`no Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova. M. Abzalova. Hozirgi o`zbek adabiy tili, Toshkent-2009.
2. ziyouz.com
3. Wikipedia ma`lumotlari